

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT MUZEYI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.08/09.07.2020. San.118.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN
INSTITUTI**

XAMIDOVA DILFUZA ULUG‘BEK QIZI

**O‘ZBEKISTON NOMODDIY MADANIY MEROSINI SAQLASH VA
MUZEYLASHTIRISH MASALALARI**

**17.00.06 – Muzeyshunoslik; tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish,
ta‘mirlash va saqlash**

**SAN‘ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation

Xamidova Dilfuza Ulug‘bek qizi

О‘zbekiston nomoddiy madaniy merosini saqlash va muzeylashtirish masalalari.....5

Хамидова Дилфуза Улугбек кизи

Вопросы сохранения и музеефикации нематериального культурного наследия Узбекистана.....27

Khamidova Dilfuza Ulughbek kizi

Issues of preservation and museumification of the intangible cultural heritage of Uzbekistan.....54

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works58

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT MUZEYI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.08/09.07.2020. San.118.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN
INSTITUTI**

XAMIDOVA DILFUZA ULUG‘BEK QIZI

**O‘ZBEKISTON NOMODDIY MADANIY MEROSINI SAQLASH VA
MUZEYLASHTIRISH MASALALARI**

17.00.06 – Muzeyshunoslik; tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish,
ta’irlash va saqlash

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/San176. raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (<http://www.stateartmuseum.uz>) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Davlatova Saodat Tilovberdiyevna
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullayev Masharib Saydamatovich
san’atshunoslik fanlari doktori (DSc),
katta ilmiy xodim

Orifjonova Gulra’no Ravshan qizi
tarix fanlari doktori (DSc)

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

O‘zbekiston davlat san’at muzeyi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/09.07.2020.San.118.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil «___»_____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi Shahidlar xotirasi maydoni. Vazirlar mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi majlislar zali. Tel.: (99855) 515-37-15; faks: (99855) 515-37-15; e-mail: tmi2007@mail.ru

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat san’at muzeyining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 16-uy.). Tel.: (99871) 236-74-36; faks: (99871) 236-77-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___»_____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «___» _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

B.V.Hasanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

M.B.Alijonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d. (PhD)

A.A.Madramimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda jahonda globallashtirish va ijtimoiy o'zgarishlar jarayoni hamjamiyatlar o'rtasida o'zaro muloqot o'rnatish uchun qulay zamin yaratish bilan birga murosasizlikning kelib chiqishi, degradatsiyalanishning jiddiy tahdid manbai bo'lishi, xususan, nomoddiy madaniy merosni saqlash bo'yicha mablag'larning yetishmasligi oqibatida uning yo'qolib ketish xavfiga aylanmoqda. Insoniyatning nomoddiy madaniy merosni muhofaza etish yo'lidagi umumiy intilishlari, sa'y-harakatlari va bu boradagi umumiy havotirni chuqur anglagan holda, hamjamiyatlar, xususan tub aholiga mansub hamjamiyatlar va ayrim hollarda alohida shaxslarning nomoddiy madaniy merosni barpo etish, muhofaza qilish, saqlash, qayta bunyod etish hamda madaniy turli-tumanlikni boyitish va insoniyatning ijodkorlik qobiliyatini oshirish dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Bugungi kunda yo'qolib ketgan noyob nomoddiy madaniy meros namunalari va ular bilan bog'liq bo'lgan asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlarni qayta tiklash, nomoddiy madaniy meros namunalari saqlovchi materiallar, axborot tashuvchi vositalarni zamonaviy formatga o'tkazib borish hamda audiovizuallashtirish borasida Turkiya, Ozarbayjon, Xitoy, Qatar, Koreya kabi davlatlarda keng ko'lamlil tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularda Nomoddiy madaniy meros obyektlarini o'rganish, saqlash, muhofaza qilish va muzeillashtirish hamda innovatsion g'oya va IT texnologiyalar, informatika hamda jalb qilish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston xalqaro maydonda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalar olib borishi natijasida milliy madaniy merosini dunyoga tanitish, ommaviylashtirish va uni asrab avaylashga katta e'tibor qaratildi. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir¹. Bu borada zamonaviy sivilizatsiya tizimida o'z o'rniga ega bo'lish, nomoddiy madaniy merosni, jumladan noyob va (yoki) yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan namunalarni saqlash va keyingi avlodga yetkazishni ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini tug'diradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-son «O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son «Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2023-yil 25-dekabrda «Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PQ-405-son Farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 222-son «2010–2020 yillarda nomoddiy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrab-avaylash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini

¹ Мирзиёев Ш. Миллий тараккиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент.: Ўзбекистон, 2019. – Б. 29.

tasdiqlash to'g'risida»², 2011-yil 23-fevraldagi 47-son «Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha nomoddiy madaniy meros obyektlarini o'rganish va muzey ishiga oid nashr etilgan ilmiy adabiyotlar, maqola va risolalar, tadqiqotlar, davriy matbuot materiallari, o'quv qo'llanmalar hamda darsliklarga murojaat qilinib, muammoviy jihatdan o'rganilishiga qarab ikki guruhga bo'lib o'rganildi:

1. Nomoddiy madaniy meros obyektlarini o'rganishga oid mahalliy va chet el adabiyotlari (ilmiy adabiyotlar, maqola va risolalar, tadqiqotlar, davriy matbuot materiallari, o'quv qo'llanmalar hamda darsliklar);

2. Muzeylashtirishga oid nazariy-uslubiy tadqiqotlar;

Birinchi guruhga kiruvchi nomoddiy madaniy meros obyektlarini o'rganishga oid adabiyotlarda o'rganilayotgan mavzuning u yoki bu tomonlarini yorituvchi ma'lumotlar uchraydi. Masalan, O'zbekiston tarixi davlat muzeyida amaliy tadqiqotlar granti «FA-A1-G001» loyihasi doirasida tayyorlangan muzeyshunoslik, muzeyshunoslikning nazariy asoslari, amaliyoti, muzey ishi va uni yuritishdagi zamonaviy usullar, muzeylar faoliyatining turli yo'nalishlari bo'yicha ko'p qo'llaniladigan atamalar izohli lug'ati ham o'rganilayotgan tadqiqot uchun muhim ahamiyat kasb etdi³.

O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosning o'zlikni namoyon etishning og'zaki an'analari va shakllari bo'yicha: T.Mirzayev, O.Safarov, D.O'rayeva⁴, I.Yormatov, M.Jo'rayev⁵, K.Qodirov, B.Suvankulov, Z.Usmonova, Z.Xolmanova⁶; ijrochilik san'ati bo'yicha: N.Kasimov, R.Nosirov, SH.Galiyev, S.Ollaberganova, O.Ibrohimov, Q.Panjiyev, M.Qodirov, U.Qoraboyev⁷, B.Shodiyev, I.Abdurahmanov; jamiyatning urf-odat, marosim va bayramlar bo'yicha: A.Ashirov, G'.Soatov, O.Ismonova, M.Pirmatova, M.Sattarov; tabiat va koinot bilan bog'liq bilimlar bo'yicha: I.Jabbarov, K.Mahmudov, M.Qurbonov; an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar bo'yicha: A.Xakimov⁸, E.Gyul, O.Xo'janiyozova, S.Aliyeva, K.Akilova, Q.Jumayev; ta'lim-tarbiyadagi

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2009 йил 19 сентябрдаги «2010–2020 йилларда номоддий мерос объекtlарини муҳофаза қилиш, асраб-авайлаш, тарғиб қилиш ва улардан фойдаланиш Давлат дастурини тасдиқлаш тўғрисида»ги 222- сонли қарори / www.lex.uz. (Murojaat sanasi. 22.05.2025).

³ Исмаилова Ж.Х. Музейшunoslik атамаларининг изоҳли луғати. – Т.: Turon zamin, 2016. – 100 б.

⁴ Mirzayev T, Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. – Т.: Aloqachi nashiryoti, 2008. – В. 3-5.

⁵ Жўраев М. Наврўз байрами. Ўзбек фольклоршунослиги кутубхонаси. – Тошкент: Фан, 2009. – Б.12.

⁶ Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. Darslik. –Toshkent: Shafoat Nur Fayz, 2020. – В 3-5.

⁷ Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. –Тошкент. Asian book house, 2023. – Б. 10-15.

⁸ Хакимов А. Прикладное искусство Узбекистана: традиции и инновации. – Ташкент, 2013. – Б.19.

ahamiyati bo'yicha: J.Mamatqosimov, K. Tashmatovalar⁹ tadqiqotlar olib borishgan. Ular yaratgan o'zbek hamda rus tillarida nashr etilgan maqola, o'quv qo'llanma va asarlarda nomoddiy madaniy meros faoliyati, tarixi qisman ochib berilgan. Nomoddiy va moddiy madaniy meros obyektlari bo'yicha etnograf va san'atshunoslar qator tadqiqotlarni olib borganlar, lekin aynan ularni muzeylashtirishga doir manba va adabiyotlar yo'qligi aniqlandi.

Xorijiy tadqiqotlarga bag'ishlangan guruhda nomoddiy madaniy meros va uning alohida tarkibiy qismlari ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarbdir¹⁰, ko'p davlatlar, jumladan, Rossiyada himoya qilish madaniy siyosatda ustuvor darajaga ko'tarilganligini ko'rish mumkin¹¹. Tabiiy ravishda moddiy va nomoddiy merosni o'rganish va saqlash hamda muzeylashtirish masalalarini N. Reshetnikov ko'rib chiqqan bo'lsa¹², insonning tabiiy va madaniy muhitining muzeylashtirilishi mumkin bo'lgan elementlari to'g'risidagi ilg'or qarashlarga rioya qilgan holda nomoddiy merosning tarkibiy qismlarini birinchilardan bo'lib aniqlash va o'rganishga e'tibor qaratgan fransuz olimlari A. Devale, B. Delos, J. Davalon, F. Merolar to'xtalib o'tgan¹³. Nomoddiy madaniy merosni folklor, ko'nikma, bilim va tillar shaklida ifodalangan ma'naviy madaniyat hodisasi bilan taqqoslagan M. Polyakova, I.Maroyevich va M. Kaulen ma'lumotlaridan tadqiqotning kerakli o'rinlarida foydalanildi¹⁴.

Bundan tashqari, muzey faoliyati, fond ishi, xorijiy tajriba, muzey faoliyatiga taalluqli qonunosti hujjatlar, muzey xavfsizligi, eksponatlarni saqlash tartiblari, madaniy meros obyektlari, muzeylarda hujjatlashtirish ishlari, ko'rgazmalar, auditoriya bilan ishlash kabi ko'plab masalalarni o'z ichiga olgan muzey terminlari

⁹ Маматқосимов Ж.А. Ўқувчиларда номоддий мадания меросга оид билим ва кўникмаларни такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс автореферати. Чирчиқ, 2020. Tashmatova K. A. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni rivojlantirish ("Tarbiya" fani misolida). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss avtoreferati. Toshkent, 2023.

¹⁰ Кирюшина Ю.В. Нематериальное культурное наследие – актуальное понятие современности // Известия Алтайского государственного университета, 2011. – Т. 1. – № 2 (70). – С. 244–247.

¹¹ Каргин А.С., Костина А.В. Сохранение нематериального наследия народов РФ как приоритет культурной политики России // Знание. Понимание. Умение. – 2008. – № 3. – С. 59–71.

¹² Решетников Н.И. Проблемы музеефикации архитектурного наследия и градостроительства Каргополья // Актуальные проблемы изучения и сохранения архитектурно-градостроительного наследия исторических поселений. Материалы XIII Каргопольской научной конференции. Каргопол / Науч. ред. и сост. Н. И. Решетников, Н. И. Тормосова, 2015; О'sha muallif. Проблемы музеефикации историко-культурного и природного наследия // Научно-исследовательская работа в музее. Материалы XV Всероссийской научно-практической конференции. (Москва, 3-4 апреля 2015 г.) / Науч. ред. и сост. Н. И. Решетников, И. Б. Хмельницкая. М.: Изд-во «Экон-информ», 2016; О'sha muallif. Музеефикация как решение комплекса проблем охраны и использования историко-культурного и природного наследия // «Музеефикация историко-культурного наследия: теория и практика»: теория и практика. Материалы III Международного симпозиума. – Уфа: ГБУ НПС РБ, 2018. – С. 160-175; О'sha muallif. Музей и музееведческие проблемы современности. ЭПИ «Открытый текст», 2015// http://opentextnn.ru/museu/N.I.Reshennikov_Museum_and_the_Museological_problems_of_modernity/?id=6067. (Murojaat sanasi. 20.04.2025)

¹³ Чуклинова И. А. Понятие «наследие» в системе научных взглядов представителей «Новой музеологии» // Вестник Томского государственного университета. Культурология и искусствоведение. – Tomsk, 2014. – № 1. – С.71–75.

¹⁴ Полякова М.А. Охрана культурного наследия России. – М., 2005. – 89 с.; Maroević I. Museology and the Intangible Heritage together against the Traditional Museum or Are We Returning to the Original Museum? // ICOFOM Study Series. 2000. No. 32. – P. 84–89.; Каулен М.Е. Музеефикация историко-культурного наследия России. – Москва, 2012. – С.106–108.

to'g'risidagi ma'lumotlardan ham foydalanildi¹⁵.

Ikkinchi guruhga muzeylashtirishga oid nazariy-uslubiy tadqiqotlar mansub bo'lib, nomoddiy va moddiy madaniy meros obyektlari bo'yicha etnograf va san'atshunoslar qator tadqiqotlarni olib borganlar, lekin aynan ularni muzeylashtirishga doir manba va adabiyotlar yo'qligi aniqlandi. O'zbek xalqining madaniy merosini saqlab kelajak avlodlarga yetkazishga zamin yaratmoqda. Davlat dasturlarida madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ham aks ettirilgan¹⁶.

Xorijiy muzeyshunoslik sohasining takomillashuv omillari, milliy tashkilotlarga asos solgan yirik muzeyshunos olimlarning faoliyati, turli ilmiy nashrlar atroflicha tahlil etilgan. Shuningdek, tarixiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish bo'yicha qabul qilingan normativ hujjatlar, xalqaro tashkilotlar faoliyati keng miqyosda o'rganilgan. O'zbekistonda aynan shu masalalar qamrovida amalga oshirilgan ishlar va tashkilotlar faoliyati, hamda XXI asrda muzeyshunoslik sohasini rivojlantirish jarayonlari ham tadqiq etilgan. L.Levteyevaning O'zbekiston muzeylari tarixi, ulardagi kolleksiyalarning shakllanishi, noyob eksponatlarning badiiy va tarixiy ahamiyati kabilar haqida muallif tomonidan matbuotda e'lon qilinib kelingan ishlarini ham keltirib o'tish mumkin¹⁷.

“Zamonaviy muzeyshunoslikda moddiy va nomoddiy merosni saqlash masalalari” nomli monografiyada zamonaviy muzeyshunoslikda moddiy va nomoddiy merosni saqlash masalalarini qamrab oluvchi, muzey ishining nazariy, ilmiy, huquqiy va metodik asoslari, tarixi va nazariyasi, integratsion hamda innovatsion yangilanish jihatlari yoritilgan¹⁸.

Tadqiqotning o'rganilish darajasiga ko'ra, O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros obyektlarini o'rganish va ularni muzeylashtirish sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar, adabiyotlar tahlili, muzeyshunoslik, muzeylarni qayta qurish, yangilarini yaratish bo'yicha olib borilgan bunyodkorlik ishlarini umumlashtiruvchi, fundamental tadqiqot ishlari shu davrga qadar amalga oshirilmaganligi mavzuni dolzarbligini ko'rsatadi.

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot bajarilayotgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IL-422105582 “O'zbekiston badiiy ta'lim tizimida “Onlayn muzey” elektron galereyasini yaratish” (2019-2021-yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini saqlash va

¹⁵ Ўзбекистоннинг моддий ва номоддий мероси атамалари. – Т.: Фан, 2019.

¹⁶ Ўзбекистон номоддий маданий мероси//муаллифлар гуруҳи: Рустамбек Абдуллаев, Уразали Ташматов. – Тошкент, 2017., Орифжоновна Г.Р. XIX-XX аср бошларига оид Ўзбекистон этномаданий меросини сақлаш, тадқиқ этиш ва намоёиш этишнинг тарихий-маданий жиҳатлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс Тошкент, 2021.

¹⁷ Левтеева Л.Г. Сохраняя культурное наследие или Мечты, ставшие реальностью. – Т.: Fan va texnologiya, 2019. – 344 с.

¹⁸ Замонавий музейшunoslikда моддий ва номоддий маданий меросни сақлаш муаммолари. – Т.: Ochun, 2020. – 280 б.

muzeylashtirish masalalarini o'rganib, ularning tipologik yechimidagi o'ziga xos jihatlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nomoddiy madaniy merosning shakllanish tarixi va o'rganish darajasini yoritib berish;

nomoddiy madaniy meros tushunchasi va klassifikatsiyasini tahlil etish;

O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilishning huquqiy asoslari tasniflash;

nomoddiy madaniy merosni targ'ib etish masalalarini ochib berish;

muzeylarda nomoddiy madaniy merosni komplektlash uslublarini ko'rsatib berish va tahlil qilish;

nomoddiy madaniy merosini muzeylarda saqlash va namoyish etish masalalarini yoritib berish va muzeylashtirishga xizmat qiluvchi amaliy, nazariy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini integratsiya qilish imkoniyatlari mavjud muzeylar (*badiiy, memorial uy muzeylari*) olingan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini saqlash, targ'ib etish masalalarini o'rganish hamda muzeylashtirish tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy tahlil, ilmiylik, tavsiflash, fanlararo yondashuv, kuzatuv metodlari, shuningdek, og'zaki tarix va ekspert-intervyu usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida nomoddiy madaniy merosning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, jamiyatlar, etnik guruhlar hamda ayrim holatlarda alohida shaxslar tomonidan o'z madaniy merosining tarkibiy qismi sifatida tan olingan nomoddiy madaniy meros namunalari, ularni ifodalovchi predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarning noyob nomoddiy madaniy meros namunalari aniqlangan;

madaniy merosni mazmunan ajdodlar tomonidan yaratilgan axloqiy, ilmiy, diniy, tafakkuriy va ruhiy qarashlari, nomoddiy madaniy meros obyektlarini saqlash va o'rganishga qaratilgan meyoriy huquqiy asoslari milliy va xalqaro mezonlarga muvofiq ravishda rivojlantirilganligi, ijodi, moddiy-ma'naviy boyliklar majmuasi sifatida ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va turmush tarzini o'zida mujassam etganligi ko'rsatib berilgan;

o'zbek xalqining bayramlari, sayllar, tomoshalar, mehmondo'stlik, oilaviy marosimlar bilan bog'liq an'analar (*bashik to'yi, ism qo'yish, sunnat to'yi*), hasharlar, milliy hunarmandchilik (*kashtachilik, zardo'zlik, kulolchilik, zargarlik, ganchkorlik va bq.*) bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar, taqlid, latifataroshlik, qissago'ylik, voizlik, bir kishi tomonidan ijro etiladigan tomoshalar, masxara, raqs, qo'g'irchoq o'yini (*qo'g'irchoqbozlik*), zarofat va go'yandalik, tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar yig'indisi nomoddiy madaniy meros ko'rinishlari ekanligi asoslangan;

respublika muzeylarida nomoddiy madaniy merosni muzeylashtirish va uning

hayotiyligini ta'minlash, o'ziga xos hududiy xususiyatlarga ega elementlarini xalqaro va milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida to'plash, hujjatlashtirish, tadqiq etish, saqlash, muhofaza qilish, ommalashtirish, o'rnini oshirish, uzatish hamda turli jihatlarini tiklashga oid yondashuvlar, shuningdek, muzey faoliyati va unga doir qonunosti hujjatlar, fond ishi, xorijiy tajriba, muzey eksponatlarini saqlash va xavfsizligi tartiblari, madaniy meros obyektlari, ko'rgazmalar, auditoriya bilan ishlash hamda muzey terminlari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mustaqillik yillarida O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini saqlash, targ'ib etish va muzeylashtirish masalalari o'rganilib, mavzuga doir tarixiy, san'atshunoslik va boshqa ilmiy adabiyotlar, folklorshunoslikka oid manbalarning o'ziga xos umumiy hamda xususiy jihatlarini ko'rsatib berilgan;

O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini saqlash, targ'ib etish va muzeylashtirishni izchil rivojlantirish hamda milliy musiqiy merosni yanada takomillashtirish maqsadida "Non madaniyati va milliy an'analar", "Palov muzeyi", "O'zbek milliy raqslari" muzeylarining Konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, ilmiy natijalar muayyan tadqiqot usullari asosida aniqlanganligi hamda ko'p sonli ilmiy maqolalarda o'z aksini topganligi, tadqiqot natijalarining respublika vakolatli tashkilotlarida amaliyotga joriy etilganligi haqidagi dalolatnomalar bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston nomoddiy madaniy merosining keng jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan jihatlarini, ko'plab madaniy meros namunalari aniqlanganligi, ularni saqlash hamda muzeylashtirishga oid ma'lumotlarni ilmiy iste'molga olib kirilganligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosining rivojlantirish, nomoddiy madaniy merosning tarixi, ularni saqlash, targ'ib qilish va muzeylashtirishning o'ziga xos hududiy xususiyatlari aks etgan ilmiy hamda ilmiy-ommabop nashrlarni chop etishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi, O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros tarixi, osori-atiqalari va nomoddiy madaniy meros namunalari bag'ishlangan maxsus saytlar hamda teleko'rsatuvlar tayyorlash jarayonida ilmiy asos vazifasini bajarishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosining mustaqillik yillaridagi holati yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

"O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini saqlash va muzeylashtirish masalalari" mavzusidagi dissertatsiyaning ikkinchi bobidagi "Nomoddiy madaniy merosni targ'ib etish masalalari" bo'limi materiallari asosida O'zbekiston Badiiy akademiyasi badiiy ko'rgazmalar direksiyasida 2022-yil 22-sentabrda o'tkazilgan O'zbekiston xalq rassomi To'ra Kuryazovning "Tarix sahifalari" deb nomlangan shaxsiy ko'rgazmasini tashkil etish jarayonida samarali foydalanilgan (O'zbekiston Badiiy akademiyasining 2023-yil 26-sentabrdagi DE24017544-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada mazkur ko'rgazmaning tashkil etilishi tomoshabinlar

tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qilgan;

O‘zbekistonda nomoddiy madaniy merosni saqlash xususan amaliy san’at turlaridan biri ganchkorlik san’atining bilim va ko‘nikmalarini tiklash xususiyatlarini shakillantirish, shuningdek, ustoz-shogird an’analarini davom ettirishga oid natijalardan “Muzei ashyolarini ekspertizasi va restavratsiyasi (Ganchkorlik)” nomli o‘quv qo‘llanmasini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 23-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 849771-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada qo‘llanma O‘zbekistonda nomoddiy madaniy merosni saqlash va muzeylashtirishga doir ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi samaradorlikni oshirgan hamda sohaga oid masalalarni yoritishga xizmat qilgan;

Nomoddiy madaniy meros tarixi, klassifikatsiyasi, O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilishning huquqiy asoslari, targ‘ib etish masalalari, muzeylarda nomoddiy madaniy merosni komplektlash, saqlash va namoyish etish uslublariga oid tadqiqot natijalaridan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining 2024-yil 20-noyabrdagi 14-07-1827-son ma’lumotnomasi). Natijalar O‘zbekistonda nomoddiy madaniy merosi mazmunan ajdodlar tomonidan yaratilgan axloqiy, ilmiy, diniy, tafakkuriy va ruhiy qarashlar, ko‘pmillatli xalq madaniyati hamda ijodi moddiy-ma’naviy boyliklar majmuasi sifatida o‘rganishda hamda sohaga oid to‘liq o‘rganilmagan badiiy jarayonlarni yoritishga xizmat qilgan;

turli millat va elatlarning tili, urf-odatlar, bayramlari, mehmondo‘stlik, axloq-odob bilan bog‘liq an’analar, farzand tarbiyasi bilan bog‘liq, beshik to‘yi, ism qo‘yish, sunnat to‘yi va boshqa oilaviy marosimlar, sayillar, hasharlar, tomoshalar, bayramlar, tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar yig‘indisi aks etgan tadqiqot natijalaridan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining 2024-yil 20-noyabrdagi 14-07-1827-son ma’lumotnomasi). Natijalar yosh avlodni har bir xalq, millat tarixiy taraqqiyoti davrida xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va turmush tarzini o‘zida mujassamlantirilganligini o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, xorijiy jurnallarda 4 ta maqola e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 137 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi asoslanib, davriy chegarasi, o'rganilish darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmeti yoritilgan, muammoga oid manbalar tahlil qilingan, tadqiqot metodlari asoslangan, mavzuning ilmiy yangiligi, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar, tadqiqot aprobativiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, tarkibiy tuzilishi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning **“Nomoddiy madaniy meros tarixi va klassifikatsiyasi”** deb nomlangan birinchi bobida Nomoddiy madaniy meros tushunchasi, shakllanish tarixi va o'rganilishiga oid tadqiqotlarning tahlili hamda Nomoddiy madaniy meros obyektlarining klassifikatsiyasi tadqiq etilgan.

Birinchi bobning *“Nomoddiy madaniy merosning shakllanish tarixi va o'rganilishi”* deb nomlangan birinchi paragrafida O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosning shakllanish tarixi hamda mavzuning o'rganilganlik darajasi xususida so'z boradi.

O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosi, turli vaqtlarda shu hududda yashab o'tgan xalqlarning an'analari, urf-odatlarini o'z ichiga olgan va ming yillar mobaynida o'ziga xos shakllangan. O'zbek xalqi nomoddiy madaniy merosi juda rang-barang va chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, birinchi navbatda O'zbekiston hududida shakllangan o'zbek xalqining genezisiga taalluqlidir. Nomoddiy madaniy merosni xronologik tartibda o'rganish maqsadga muvofiqligini ta'kidlagan holda, mazkur tadqiqotda O'zbekistonda yashagan xalqlarning tarixiy merosiga qisqacha ta'rif berish joiz. Shuning uchun quyida nomoddiy madaniy merosning O'zbekistondagi yodgorliklar yoki uning tarixiy-madaniy boyliklari atamalari qo'llanildi.

Nomoddiy madaniy meros – insoniyat faoliyatidagi madaniy shakl an'anasida vujudga kelgan jamlanma bo'lib, o'ziga xoslik va vorislik tuyg'ularini shakllantiradi. Ya'ni, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan, jismoniy shaklga ega bo'lmagan, xalqning urf-odatlari, marosimlari, bayramlari, og'zaki ijodi, tillari, amaliy bilimlari va ko'nikmalari, san'at, hunarmandchilik, xalq tabobati kabi an'anaviy qadriyatlar yig'indisidir.

“Nomoddiy madaniy meros” tushunchasining shakllanish tarixi haqida gapirganda, avvalo, XX asr oxirida ilmiy leksikasiga kirgan umumiy hodisa - Jahon merosining kelib chiqishiga murojat qilish maqsadga muvofiqdir.

Bizningcha ham Nomoddiy madaniy meros tushunchasi urf-odatlarini, o'ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko'nikmalarni, shuningdek, ular bilan bog'liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi, o'z navbatida hamjamiyatlar, guruhlar tomonidan, alohida holatlarda muayyan shaxs madaniy merosining bir qismi sifatida tan olinganligini anglatadi. Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan bunday nomoddiy madaniy meros doimo muayyan hamjamiyatlar va guruhlar tomonidan ularning atrof muhit, tabiat va o'z tarixiga bog'liq holda yaratiladi. Qolaversa, ularda o'ziga xoslik va vorislik tuyg'usini shakllantiradi hamda insoniyat ijodini va madaniy xilma-xillikning hurmat

qilinishiga ko‘maklashadi¹⁹.

Nomoddiy madaniy merosning mohiyati shundaki, u og‘zaki tarzda avloddan avlodga uzatiladi va qabul qilinadi. Shuningdek, nomoddiy meros zamonaviylik sharoitida saqlab qolish, namoyish qilish va ijodiy xarakterini yetkazish bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi.

XX asrdan boshlab davom etib kelayotgan globalizatsiya va modernizatsiya jarayonlari nomoddiy madaniy merosning ko‘plab turlarini yo‘q bo‘lib ketishiga olib kelayotganligini ko‘rish mumkin.

Ta’kidlash joizki, nomoddiy merosni o‘rganish muammosi tarix, qadimshunoslik, muzeyshunoslik, san’atshunoslik, madaniyatshunoslik va jamiyatshunoslik kabi qator fanlarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda tadqiqot jarayonlariga innovatsion g‘oya va texnologiyalar, informatika ham jalb qilinmoqda. Bunda moddiy ta’minotni yuzaga keltiruvchi yo‘nalish – tarixiy-madaniy turizm bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy jarayonlar ham muhim o‘rin tutadi.

Madaniy meros mazmunan ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan axloqiy, ilmiy, diniy, tafakkuriy va ruhiy qarashlar, xalq madaniyati hamda ijodi kabi moddiy-ma’naviy boyliklar majmuasidan iboratdir. Har bir xalq, millat tarixiy taraqqiyoti davrida o‘zining madaniy merosini yaratadi. Xalqning madaniy merosi qanday darajada bo‘lsa, o‘sha xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va turmush tarzi ham shunday bo‘ladi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, nomoddiy qatlam madaniy faoliyat shakli hisoblanadi, har bir fuqaro uchun katta qiymatga ega bo‘lgan tarixiy an’analar va urf-odatlariga asoslanadi.

Nomoddiy madaniy merosni kelib chiqish tarixi va bugungi kundagi holatiga ta’rif berish jarayonida nomoddiy madaniy meros obyektlarini o‘rganishga oid adabiyotlar (ilmiy adabiyotlar, maqola va risolalar, tadqiqotlar, davriy matbuot materiallari, o‘quv qo‘llanmalar hamda darsliklar), muzeylashtirish bo‘yicha nazariy-uslubiy tadqiqotlarga tayanildi. Bu borada ko‘plab tadqiqotlar olib borilganligi aniqlandi. Masalan, bevosita nomoddiy merosni o‘rganishga bag‘ishlangan birinchi ishlardan biri italiyalik tadqiqotchi Jovanni Levining monografiyasi hisoblanadi²⁰. Avvalambor nomoddiylik fenomenini umumiy jihatda ko‘rib chiqqan olimlardan M. Kagan, Y. Lotman va B. Uspenskiylarning ishlariga e’tibor qaratildi²¹. Shuningdek, nomoddiy madaniyatni translyatsiya qilish, urf-odatlarini uzatish va madaniyatdagi uzluksizlik jarayonlarini o‘rganishga oid adabiyotlar, zamonaviy madaniyatshunoslik doirasida nomoddiy madaniy meros fenomeniga tegishli bo‘lgan individual hodisalarni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar, ya’ni folklorshunoslik, san’atshunoslik, etnografiya, madaniyatshunoslik, mintaqaviy tadqiqotlar ham tahlil qilingan²².

¹⁹ Номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш бўйича халқаро Конвенция. 2-модда. – Париж. 2003. <https://lex.uz/docs/1385614>. (Murojaat sanasi. 19.02.2025)

²⁰ Levi G. Das immaterielle Erbe. Eine bauerliche Welt an der Schwelle zur Moderne. – Berlin, 1986. – P.193.

²¹ Каган М.С. Философия культуры // Каган М.С. Избранные труды в VII томах. –Т. III. – СПб., 2007. – С. 241-570.; Лотман Ю.М. Культура и взрыв // Лотман Ю.М. Семиосфера. – СПб., 2004. – С. 11-148.; Успенский Б.А. Его Локуэпс: язык и коммуникационное пространство. – Москва, 2007.

²² Баллер Э.А. Преемственность в развитии культуры. – Москва, 1969. – 294 с.; Тимошук А.С. Традиционная культура: сущность и существование: автореф доктора филос. наук. – Нижний Новгород, 2007. – 46 с.;

Birinchi bobning “*Nomoddiy madaniy meros tushunchasi va klassifikatsiyasi*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida nomoddiy madaniy meros tushunchasining shakllanishi hamda tasnifi ko‘rib chiqilgan.

Nomoddiy madaniy meros tushunchasi urf-odatlarini, o‘ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko‘nikmalarni, shuningdek, ular bilan bog‘liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi, ular esa o‘z navbatida hamjamiyatlar, guruhlar tomonidan, alohida holatlarda esa, muayyan shaxs madaniy merosining bir qismi sifatida tan olinganligini anglatadi. U muayyan bir xalqning asrlar davomida shakllangan og‘zaki ijodi, ijrochilik san‘atlari, jamiyatning urf-odat, marosim va bayramlari, tabiat va koinot bilan bog‘liq bilimlari, an‘anaviy hunarmandchilikka oid bilim va ko‘nikmalaridir.

“Nomoddiy” meros (*moddiy qiymatga ega bo‘lmagan*) atamasi bilan birga, xorijiy adabiyotlarda ko‘pincha “nomoddiy” (*ko‘rinmas*) atamasi ishlatilib, obyekt shaklida mavjud bo‘lmagan narsalar haqida gapirilayotganligini anglatadi²³.

Nomoddiy madaniy meros obyektlari quyidagi sohalarda namoyon bo‘ladi:

o‘zlikni namoyon etishning og‘zaki an‘analari va shakllari, shu jumladan, ayni paytda til-nomoddiy madaniy merosni aks ettiruvchi omil sifatida;

dostonchilik – doston-liro-epik janr, og‘zaki va yozma adabiyotidagi katta hajmga ega bo‘lgan epik asar. “Doston” so‘zi qissa, hikoya, sarguzasht, ta‘rif va maqtov ma‘nolarida ishlatiladi. Og‘zaki ijod namunasi bo‘lgan dostonlar ko‘pgina variantlarga egaligi, jamoaviyligi, an‘anaviyligi bilan yozma adabiyot namunasi bo‘lgan dostonlardan ajralib turadi;

ijrochilik san‘ati – (*shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqomlari, dutor maqom yo‘llari, surnay maqom yo‘llari, feruz, ushshoq, baxshichilik, katta ashula, suvora, naqsh, mumtoz ashula, yalla, tanovar, mavrigi, qarsak, alla, xalfachilik, Xorazm raqsi-lazgi, dorbozlik, askiya, qo‘g‘irchoqbozlik, xalq o‘yinlari*);

jamiyatning urf-odatlari, marosimlari, bayramlari – (*Beshik to‘yi, Sunnat yoki xatna to‘yi, Muchal yoshi, Nikoh to‘yi marosimi, Palov madaniyati va an‘analari, Yuz ochdi marosimi, Navro‘z, Sumalak sayli, Boychechak marosimi, Ramazon*);

tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar yig‘indisi – (*Yomg‘ir chaqirish marosimi, Boysun, Nomoddiy madaniy meros muhofazasida mahalla tajribasi*);

an‘anaviy hunarmandchilik bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar²⁴ – (*Buxoro zardo‘zligi, kandakorlik, gilamdo‘zlik, Do‘ppido‘zlik, kulolchilik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, kashtachilik*).

Jamiyatning urf-odatlari, marosimlari, bayramlari, mehmondo‘stlik an‘analari, axloq-odob bilan bog‘liq urf-odatlar, farzand tarbiyasi bilan bog‘liq marosimlar, beshik to‘yi, ism qo‘yish marosimi, sunnat to‘yi, mahalliy miqyosda

Noseck M. Was ist Tradition [Elektron resurs] // Nationalagentur für das Immaterielle Kulturerbe. Österreichische UNESCO-Kommission. URL: <http://nationalagentur.unesco.at/c>i-hin/page.pl?id=18> (Murojaat sanasi: 21.07.2023.); Лавренова Т.Н. Теоретические основы изучения преемственности в культуре // Известия ПГПУ им. В.Г. Белинского. 2009. – №11(15). – С.19-24.

²³ Курьянова Т.С. Нематериальное наследие: этапы становления термина и явление// Вестник Томского государственного университета. 2012. – № 362. – С.87-90. URL: <http://vital.lib.tsu.ru/vital/access/manager/Repository/vtls:000434661> (Murojaat sanasi. 05.01.2025).

²⁴ Номоддий маданият мерослар бўйича меъерий ҳужжатлар (тўплам). – Тошкент, 2013. – Б. 4-5.

o‘tkaziladigan sayillar, hasharlar, tomoshalar, bayramlar, tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar yig‘indisi ham Nomoddiy madaniy meros hisoblanadi.

Shuningdek, an‘anaviy xalq taqvimlari, kunning botishiga qarab kelgusi kunning qanday kelishini aytib berish, o‘yning turishiga qarab keyingi o‘yning taxminiy ob-havosini aniqlash, hayvonlar harakati orqali sodir bo‘ladigan voqealarni bashorat qilish, pazandachilik san‘ati, an‘anaviy tabobat bilan bog‘liq bilimlar, an‘anaviy hunarmandchilikka oid bilim va ko‘nikmalar zardo‘zlik, quroqchilik, kandakorlik, gilamchilik, do‘ppido‘zlik, qo‘g‘irchoqsozlik, kulolchilik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi va mayolika san‘ati kabilar ham kiradi.

Xususan, tadqiqotchilar nomoddiy merosning uchta asosiy toifasini ajratib ko‘rsatadi. Jismoniy shaklda ifoda etilgan madaniyat aspektlari va muayyan inson jamoasining an‘analari (marosimlar), jismoniy shaklga kiritilmagan ifoda shakllari (til, qo‘shiqlar, xalq og‘zaki ijodi) moddiy madaniy merosni tashkil etuvchi obyektlarning ramziy va metaforik ahamiyatlari hisoblanadi²⁵.

O‘zbekiston Nomoddiy madaniy meros tushunchasi fanga yaqinda kirib kelgan bo‘lishiga qaramay, uning tarixiy ildizi yer yuzida inson paydo bo‘lgan davrdanoq shakllangan va inson ongi hamda tafakkuri rivojlangan sayin taraqqiy eta boshlagan. O‘zbek xalqi tarixiy taraqqiyoti o‘rta asrlarda tubdan rivojlanib, har bir fan sohasida yirik tadqiqot olib borgan alloma va mutafakkirlar yetishib chiqdi. Jumladan, bu davrda Sharq allomalarining ilmiy-badiiy asarlari, xalq og‘zaki ijodiyoti namunalari, diniy qarashlari, moddiy va ma‘naviy yodgorliklar, maishiy buyumlar namunalari, mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari orqali o‘rganish mumkin.

Ta‘kidlash joizki, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy hayotda, nomoddiy madaniy merosni taraqqiy ettirish va muhofaza qilishda ham jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Bu davrga kelib, xalqning tabiiy-hayotiy ehtiyoji asosida paydo bo‘lgan nomoddiy madaniy meros namunalari badiiy jihatdan yuksaldi va ommalashdi hamda davlatchilik rivoji natijasida mamlakat va uning rahbarlari hayoti bilan bog‘liq marosim-bayramlar o‘tkazish an‘anasi kuchaydi.

Sayyohlarning ko‘p qismi xalqning madaniyati, san‘ati, ilm-fani, dini, tarixiga qiziqadi. Xududning musiqiy potentsiali – madaniyatining jozibador elementlaridan biridir. Ayrim mamlakatlarda musiqa turistlarni jalb etuvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Mashhur musiqa festivallari har yili minglab ishtirokchilarni jamlaydi²⁶.

Nomoddiy madaniy meros – xalqning ko‘p asrlik ma‘naviy tajribasini, urf-odatlari, an‘analari, og‘zaki ijodiyoti, turli marosimlari va amaliy bilimlarini o‘z ichiga olgan bebaho qadriyatdir. Qolaversa, ushbu meros har bir millatning madaniy hujjati bo‘lib, uning tarixiy taraqqiyoti, jamiyatdagi o‘rni va kelajak avlodlarga uzatiladigan ma‘naviy merosidir.

Nomoddiy madaniy meros shakllanishi uzoq tarixiy jarayonda amalga

²⁵ Стратегия государственной культурной политики на период до 2030 года Утверждена распоряжением Правительства Российской Федерации от 29 февраля 2016 г. № 3. – Р. 26. – [Elektron resurs]. – Режим доступа: <http://static.government.ru/media/files/>. (Murojaat sanasi. 12.02.2025)

²⁶ Квартальнов В. А. Туризм. – Москва: Финансы и статистика, 2006. – С. 109.

oshgan. Xalqlar turmush tarzi, mehnat faoliyati, diniy e'tiqodi va tabiat bilan munosabati natijasida muayyan urf-odatlar, rivoyatlar va an'analar vujudga kelgan. Ularning avloddan-avlodga o'tishida og'zaki an'analar, ustoz-shogird tizimi va oilaviy tarbiya muhim rol o'ynagan.

Bu merosning o'rganilishi XX asrdan boshlab ilmiy asosda shakllana boshladi. Etnografiya, folklorshunoslik, antropologiya kabi sohalar nomoddiy merosning turli ko'rinishlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratdi. YUNESKONing 2003-yilda qabul qilingan "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiya"si esa bu sohada xalqaro miqyosdagi hamkorlikni mustahkamladi va uni asrab-avaylashga keng yo'l ochdi.

Xulosa qilib aytganda, nomoddiy madaniy meros — bu millatning ruhiy tafakkurini ifodalovchi muhim boylik bo'lib, uni asrab-avaylash, o'rganish va kelajakka yetkazish har bir jamiyatning vazifasidir. Uning o'rganilishi nafaqat ilmiy, balki ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosning shakllanishi va o'rganilishi xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu merosni saqlash va rivojlantirish uchun faoliyat olib borish, kelajak avlodlarga o'z madaniyatlarini yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Nomoddiy madaniy meros O'zbekistonning milliy identifikatsiyasini shakllantirishda, jahon madaniyatidagi o'rnini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Dissertasiyaning "**O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi muhofazasining huquqiy asoslari va targ'iboti**" deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilishning huquqiy asoslari hamda Nomoddiy madaniy merosni targ'ib etish masalalari yoritilgan.

Ikkinchi bobning "*O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilishning huquqiy asoslari*" deb nomlangan birinchi paragrafida O'zbekiston Respublikasi tomonidan nomoddiy madaniy meros sohasini tartibga soluvchi va uning rivojlanishiga yo'naltirilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ko'rib chiqilgan.

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishganidan so'ng nomoddiy madaniy meros hamda milliy qadriyatlarni muhofaza qilish bo'yicha maxsus qonunlar qabul qilindi va davlat dasturlari ishlab chiqildi. Mazkur me'yoriy hujjatlar o'zbek xalqining boy nomoddiy madaniy merosini turli uslublar orqali saqlab, kelajak avlodlarga yetkazishga dasturi-amal bo'lib xizmat qilmoqda. Davlat dasturlarida nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalariga ham alohida to'xtab o'tilgan.

O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu sohadagi huquqiy asoslar xalqaro va milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlarga tayanadi va ular ikki daraja — xalqaro va milliy darajada yaratilganligini kuzatish mumkin. Xalqaro darajadagi huquqiy asos sifatida 2003-yil qabul qilingan "Nomoddiy madaniy merosni saqlash to'g'risida"gi Xalqaro Konvensiya xizmat qiladi. Yangi O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosni, xususan, maqom va baxshichilik san'atini muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilish hamda milliy qadriyatlar sifatida keng namoyon etish bilan bog'liq faoliyatni takomillashtirish hamda rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

2003-yilgi nomoddiy madaniy merosni birgalikda saqlash to'g'risidagi Konvensiyaning boshqa qoidalari qatorida tillarni nomoddiy madaniy merosni o'tkazish uchun instrument sifatida saqlash to'g'risidagi band ham qayd etilgan. Bunda nomoddiy merosni ifodalashda tillarning asosiy roli tan olinadi, ya'ni an'analar, tajriba, bilimlarni avloddan avlodga tarjima qilish jarayonini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Hozirgi kunda nomoddiy merosning 4 ta alohida ro'yxati yuritiladi:

zudlik bilan muhofaza ostiga olinishi lozim bo'lgan nomoddiy madaniy meros *obyektlari* ro'yxati;

nomoddiy merosning *reprezentativ* ro'yxati;

nomoddiy merosning *milliy* ro'yxati;

nomoddiy merosning *mahalliy* ro'yxati²⁷.

Ta'kidlash joizki, nomoddiy madaniy merosning respublika milliy ro'yxatiga 2022-2025-yillarda o'zlikni namoyish etishning og'zaki shakli va an'alariga 9 ta, ijrochilik san'ati 23 ta, jamiyatning urf odat, marosim va bayramlariga 8 ta, tabiat va koinot bilan bog'liq urf odat va ko'nikmalariga 12 ta, an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarga 19 ta element kiritilganligini aytish mumkin.

O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish milliy o'zlikni asrash, avlodlar o'rtasidagi ma'naviy bog'lanishni mustahkamlash va jahon madaniyatida munosib o'rin egallashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar, xususan, "Nomoddiy madaniy meros to'g'risida"gi Qonun, Madaniyat to'g'risidagi Qonun, shuningdek, O'zbekistonning YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi nomoddiy merosni himoya qilishning mustahkam huquqiy zamin yaratmoqda.

Xususiy va davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda mahalliy aholining bu sohadagi faol ishtiroki qonunchilik asosida rag'batlantirilmoqda. Shu bilan birga, amaldagi huquqiy bazani yanada takomillashtirish, nomoddiy meros obyektlarini ro'yxatga olish, ularni targ'ib qilish va kelajak avlodga yetkazish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda "nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar tog'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator Farmonlari, Qarorlari va boshqa ko'plab qonunosti hujjatlari madaniy merosga oid vazifalarni amalga oshirishga jiddiy imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Milliy komissiyasi (UNESCO huzuridagi), O'zbekiston Fanlar akademiyasi – Tarix instituti, San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti hamda Respublika Hunarmand uyushmalari ham nomoddiy madaniy meros bo'yicha faoliyat olib bormoqdalar.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ravnaqida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va

²⁷ Каримов А. Лазги – номоддий маданий меросимиз дурдонаси / Янги Ўзбекистон. 24 октябрь 2020. <https://yuz.uz/news/lazgi--nomoddiy-madaniy-merosimiz-durdonasi>. (Murojaat sanasi. 13.07.2023).

targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" Qarori muhim ahamiyatga ega. Unda mamlakatimizda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilish hamda milliy qadriyatlarimizni keng namoyon etish bilan bog'liq faoliyatni yanada takomillashtirish va "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish maqsadi qo'yildi.

Shu bois, O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari milliy va xalqaro mezonlarga muvofiq ravishda rivojlanib, mamlakatning ma'naviy taraqqiyoti va madaniy merosini asrab-avaylashda muhim omil sifatida namoyon bo'lib, davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda.

Ko'pgina xalqlar uchun nomoddiy madaniy meros identifikatsiyaning asosiy manbai hisoblanadi. Demokratik boshqaruv ko'magi tufayli hamda inson huquqlariga nisbatan hurmatda bo'lganligi sabab nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid chora-tadbirlar tinchlik va xavfsizlik omillarining yuzaga kelishida yordam beradi. Jumladan, ularga chuqur ildiz otgan umumiy qadriyatlar almashinuvi, jamoaviy o'zlik hamda shaxsiy qadr-qimmat hissining mustahkamlanishi, ijodiy va iqtisodiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlarning yaratilishi kiradi.

Bugungi kunda O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilishning huquqiy asoslari ishlab chiqilganligi, milliy an'ana, amaliy san'atga doir bilim va ko'nikma hamda qadriyatlarning saqlanib qolishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda²⁸. Shuningdek, nomoddiy madaniy meros namunalarini YUNESKO ro'yxati va reyestriga kiritish bo'yicha ishlar izchil amalga oshirilmoqda. Ularni muhofaza qilishda ilmiy salohiyatga ega soha vakillari, shuningdek, muzeyshunos olimlar bir qator tadbirlarni amalga oshirib kelishmoqda. Muzeylar tarixiy va madaniy predmetlarni saqlash va namoyish etishdan tashqari, ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni jamlagan obyektlarni ham saqlaydi va ommaga tadbiriq qiladi.

Bobning "*Nomoddiy madaniy merosni targ'ib etish masalalari*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosini targ'ib etishga oid chora-tadbirlar faoliyati ochib berilgan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda barcha sohalar qatori madaniyat rivojiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston milliy madaniyatini yanada rivojlantirish, O'zbekistonning eng yangi tarixini yaratish, xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi va bilimni oshirish, moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash hamda ommalashtirish, jahon madaniyati maydoniga faol integratsiyani olib kirish, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish, istiqbolda yosh avlodga ma'naviy merosga bo'lgan hurmat hissini mustahkamlash, madaniyat sohasi vakillarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda²⁹.

²⁸ Toshmatov O., Isakulova N. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2014. – B. 21.

²⁹ Давлатова С.Т. Ўзбекистон моддий маданий меросини муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий асослари // «Музейшунослик XXI асрда: тадқиқотлар, аналалар ва инноватсиялар» мавзусидаги Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. 3-китоб. – Тошкент, 2023. – Б.440.

Yangi O‘zbekistonda nomoddiy madaniy merosni, xususan, maqom va baxshichilik san’atini muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilish hamda milliy qadriyatlar sifatida keng namoyon etish bilan bog‘liq faoliyatni takomillashtirish hamda rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbek xalqi nafaqat moddiy, balki boy nomoddiy madaniy merosga ham ega bo‘lib, asrlardan-asrlarga ajodlarimiz tomonidan avlodlarga yetkazib kelinmoqda. Mustamlaka yillarida butun xalqimiz kabi nomoddiy merosimiz ham ko‘plab tazyiqlarga uchradi. Ammo xalq bu xazinani istiqloq yillarigacha omon saqlab keldi va jahonga tanitish uchun ishga kirishdi.

Nomoddiy madaniy merosning mohiyati shundan iboratki, tirik odamlar tomonidan uzatiladi. Aynan shu nomoddiy meros zamonaviylik sharoitida tirik qolishi va ijodiy xarakterini saqlab qolishi kerak³⁰.

Ta’kidlash joizki, hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan milliy qadriyatlarni va an’analarni tiklash va targ‘ib etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Buning dalili sifatida nomoddiy madaniy merosni o‘zida aks ettirayotgan muzeylarni misol qilib keltirish mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3391-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan milliy maqom san’atining qadimiy va o‘rta asrlardagi tarixi, zamonaviy ijodiy an’analari, asrlar davomida mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan noyob san’at namunalari muzey ekspozitsiyasi orqali xalqaro miqyosda keng targ‘ib etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrida «maqom muzeyi» faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2018-yil 6-avgustdagi 621-sonli qaroriga asosan tashkil etildi³¹. Shahrisabz shahar davlat muzey qo‘riqxonasi tarkibiga kiruvchi “Maqom muzeyi”da O‘zbekistonning eramizdan oldingi davridan tortib bugungi kungacha bo‘lgan nomoddiy madaniy merosi ko‘rsatilgan. Moddiy meros obyektlari kabi nomoddiy madaniy meros obyektlari ham mamlakatga tashrif buyuruvchi sayyohlar sonining ortishiga xizmat qiladi. Sababi, turistlarning har xil guruh va kategoriyalari uchun turistik yo‘nalish yoqimlilikiga ta’sir etuvchi, muhim o‘zgaruvchi omil – uning madaniy va ijtimoiy xarakteristikasidir. Turistlarning ko‘p qismi xalqning madaniyati, san’ati, ilm-fani, dini, tarixiga qiziqadi. Hududning musiqiy potentsiali – madaniyatining jozibador elementlaridan biridir. Ayrim mamlakatlarda musiqa turistlarni jalb etuvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Mashhur musiqa festivallari har yili minglab ishtirokchilarni jamlaydi³².

So‘nggi yillarda sohaga oid yuzdan ziyod festival va yarmarkalar, savdo ko‘rgazmalari va boshqa tadbirlar o‘tkazilmoqda. Buxoro shahrida “Ipak va ziravorlar”, “Zardo‘zlik va zargarlik” Xalqaro festivallari, Boysundagi “Boysun bahori”, Marg‘ilonda o‘tkazilayotgan “Atlas bayrami” Xalqaro an’anaviy

³⁰ Каулен М.Е. Музеефикация историко-культурного наследия России. – Москва, 2012 – С. 71-84.

³¹ <https://shakhrisabzmuseum.uz/index.php/uz-uz/> (Murojaat sanasi 21.12.2024).

³² Квартальнов В. А. Туризм. – Москва. Финансы и статистика, 2006. – С. 109.

to‘qimachilik festivallarida xorijiy davlatlardan ham vakillar ishtirok etayotgani diqqatga sazavordir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda moddiy va nomoddiy madaniy merosni o‘rganish hamda targ‘ib qilish ishlari nafaqat O‘zbekiston balki, xalqaro ko‘lamda ham keng o‘rganilayotganligi, bunda BMTning YUNESKO tashkiloti bevosita ishtirok etayotgani jahonda mustaqil Yangi O‘zbekistonning nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqotning **“Nomoddiy madaniy merosni komplektlash, saqlash va namoyish etish masalalari”** deb nomlangan uchinchi bobida muzeylarda nomoddiy madaniy merosni komplektlash uslublari hamda saqlash va namoyish etish masalalari o‘rganilib, sohaning istiqbolli rivojiga oid fikr-mulohazalar berilgan.

Uchinchi bobning *“Muzeylarda nomoddiy madaniy merosni komplektlash uslublari”* deb nomlangan birinchi paragrafida muzeylar faoliyatida nomoddiy madaniy merosni komplektlashning turli uslublari ochib berilgan.

Tadqiqot davomida nomoddiy madaniy merosni komplektlashning bir necha usullari aniqlandi. Ulardan birinchisi dala ishlari va antropologik tadqiqotlardir. Bular bilim va amaliyotlarni jamiyat hayotida amalda qo‘llash kontekstida to‘plash, fiksatsiyalash va yig‘ishga yo‘naltirilgan ishlardir.

Nomoddiy merosni tushunish birinchi navbatda, moddiy madaniy merosni saqlash va talqin qilish muammolari bilan bog‘liq. Muzey ishida nomoddiy meros obyektlarining joyini analiz qilishdan avval ularni muzey predmeti sifatida aniqlab olish zarur. Albatta, bir qarashning o‘zida muzeyda ideal obyektни tasavvur qilish qiyin. Bunday muammo yuzaga kelmasligi uchun obyektни an‘anaviy ko‘rinishida saqlash zarur.

Muzeylarda nomoddiy madaniy merosni komplektlash (*jamlash, yig‘ish, to‘plash, saqlash*) usullari alohida yondashuv va metodologiyani talab qiladi, chunki merosning moddiylashtirilgan shakllari (obyektlari) ko‘pincha nomoddiy madaniyatning to‘liq aksini anglatmaydi. Muzeylarda nomoddiy madaniy merosni komplektlashning asosiy usullari va yondashuvlari jumladan, ularning afzalliklari, muammolari va istiqbollari ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish o‘rinli bo‘ladi.

Fondlarni komplektlash muzey ishining zamonaviy nazariyasi va amaliyotining eng qiyin va kam rivojlangan muammolaridan biridir. “Muzey fondlarini komplektlash” iborasi muzeyshunoslikda 1940-yillarning oxirida paydo bo‘lgan va deyarli o‘ttiz yil davomida “to‘plash ishlari” atamasi bilan nomlangan. Faqat 1970-yillarda kolleksiya asta-sekin ilmiy komplektlash bilan almashtirila boshlandi. Ammo bu muammolarni kamaytirmadi. Shuning uchun komplektlashni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish, mavjud muammolarni o‘rganishdan boshlanishi kerakligi ta‘kidlandi³³.

Muzeylarda nomoddiy madaniy merosni komplektlash usullari alohida yondashuv va metodologiyani talab qiladi, chunki merosning moddiylashtirilgan shakllari ba‘zan nomoddiy madaniyatning to‘liq aksini anglatmaydi. Muzeylarda

³³ Решетников Н.И. Музей и комплектование его собрания: Учебное пособие. – М., МГУКИ, 2013 – С.82.

nomoddiy madaniy merosni komplektlashning asosiy usullari va yondashuvlari jumladan, ularning afzalliklari, muammolari va istiqbollari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish o'rinli bo'ladi.

Muzey fondlarini komplektlash – muzey kolleksiyasini shakllantirish va to'ldirish uchun muzey ahamiyatiga ega bo'lgan obyektlarni aniqlash va yig'ishning maqsadli, tizimli jarayonidir. Fondlarni komplektlashni-muzeyning jamiyat va tabiatda sodir bo'layotgan jarayonlar va hodisalarni hujjatlashtirishning ijtimoiy funksiyasini amalga oshirish usuli sifatida ham ko'rib chiqilishi mumkin.

Muzey fondlarini komplektlashning ilmiy konsepsiyasi muzeyning ixtisosligiga va uning muzey tarmog'idagi o'rniga muvofiq sotib olishning vazifalari, yo'nalishlari, shakllari va usullarini umumlashtirilgan tizimli tushunishni o'z ichiga oladi. U muzeyning maqsad va vazifalarini, shuningdek, sotib olish hujjatlarida qayd etilgan ma'lumotlar doirasi va miqdorini hisobga olgan holda kolleksiyalar uchun materiallarni tanlash mezonlarini belgilaydi.

Tizimli komplektlash muntazam ravishda muzey kolleksiyalarini bir xil turdagi muzey obyektlari bilan to'ldiradi, boshqacha qilib aytganda, bu tizimli kolleksiyalarni shakllantirish va to'ldirishga qaratilgan. Tematik komplektlash ma'lum bir mavzuni aks ettiruvchi muzey ahamiyatiga ega bo'lgan turli xil narsalarni aniqlash va to'plashdan iborat. Bu muzey tomonidan o'rganilgan mavzular bo'yicha jarayonlar va hodisalarni hujjatlashtirish, shuningdek tematik to'plamlarni shakllantirish va to'ldirish imkonini beradi. Tizimli va tematik komplektlash vazifalari asosan kichik muzeylarda keng tarqalgan kompleks komplektlash bilan birlashtirilgan.

Bugungi kunda ilmiy komplektlash modeli ishlab chiqilgan. Ammo amalda, komplektlash obyektini, subyektning muhitini, inson faoliyati sohasini oldindan o'rganish zaruratidan boshlab, eng oddiy qoidalarga rioya qilinmaydi. Ko'pincha ekspeditsiya guruhi o'z faoliyatida komplektlash tematikasi bilan cheklanadi³⁴.

Uchinchi bobning *“Nomoddiy madaniy merosini muzeylarda saqlash va namoyish etish masalalari”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida O'zbekiston muzeylarida nomoddiy madaniy merosni saqlash va namoyish etish masalalari ko'rib chiqilgan.

Nomoddiy madaniy meros obyektlarini muzeylashtirish muzey faoliyatining yo'nalishi bo'lib, ushbu obyektlarni mustahkamlash va muzey ekspozitsiyasiga aylantirishdan iborat. Nomoddiy obyektlarini muzeylashtirishdagi asosiy qiyinchiliklar ularning moddiy ifoda shakliga ega emasligidadir. Agar muzey ashyolarini saqlash usuli asrlar davomida ishlab chiqilgan bo'lsa, ularni nomoddiy meros tushunchasi an'analarni uzatishdagi ijtimoiy mexanizmni anglatadi. Nomoddiy merosni saqlash jarayonida muzeylar muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston muzeylarida asosan moddiy madaniyatga oid kolleksiyalar to'plangan. Jahonning ko'plab muzeylari faoliyatida nomoddiy merosni ya'ni folklor, urf-odat, qadriyat, bayram, an'ana, marosimlarni moddiy ko'rinishga keltirish, konservatsiyalash va ekspozitsiyalashtirish jarayoniga katta e'tibor

³⁴ Туманов В. Е. Актуальные проблемы разработки модели научного комплектования музейных собраний по истории советского общества // Формирование и изучение музейных коллекций по истории советского общества. – М., 1982. – С. 19-38.

qaratiladi. O‘zbekiston muzeylarida ham bu faoliyatni yo‘lga qo‘yish katta muammolardan biridir.

Muzey amaliyotida nomoddiy madaniy meros obyekt ikkita asosiy shakl doirasida, ekspozitsiya va ko‘rgazma va madaniy-ma‘rifiy tadbirlarda namoyish etiladi. Ekspozitsiyada nomoddiy obyekt obyektlarni guruhlash va ekspozitsiya maydonidagi matnlarni kiritish orqali taqdim etiladi. Bu holda asosiy usul talqin qilish usuli hisoblanadi. Ekspozitsiyada nomoddiy obyektlarni taqdim etishda ekspozitsiyani qurishning turli usullaridan foydalanish mumkin:

tematik – bitta mavzu bilan birlashtirilgan turli xildagi buyumlarni guruhlash;

ansambl – obyektlarning hayotiy o‘zaro bog‘liqligini saqlab qolish bilan ta‘sir qilish;

landshaft - panoramalar va dioramalar yordamida tabiiy yoki ijtimoiy muhitning muzey obyektlarini guruhlash orqali modellashtirish.

Tizimli usul nomoddiy obyektlarni taqdim etish uchun qo‘llanilmaydi. Mavzuli (tematik) usul nomoddiy obyektlarning har qanday toifalarini taqdim etish uchun javob beradi. Masalan, “an‘anaviy to‘y marosimi” mavzusini tanlash orqali siz mavzuni aks ettiruvchi narsalarni guruhlashingiz, ularga sharhlar qo‘shishingiz mumkin. Ansambl usuli kundalik hayotda ba‘zi narsalardan foydalanishni yaxshi aks ettiradi. Ularni haqiqiy muhitda joylashganday qilib, o‘sha davrdagi an‘anaviy uy muhitini qayta tiklab ko‘rsatish mumkin.

Landshaft usuli jismoniy shaklda ifodalangan obyektlarni taqdim etishda qo‘llaniladi. Masalan, ko‘rgazma maydoniga manekenlarni kiritish orqali an‘anaviy marosim elementini, zig‘irni qayta ishlash texnologiyasini, sopol idish ishlab chiqarishni va boshqalarni taqdim etish mumkin. Ushbu usulni etnografik muzeyida etnik merosni taqdim etishda muvaffaqiyatli qo‘llash mumkin.

Madaniy-ma‘rifiy tadbirlarda nomoddiy obyekt an‘anaviy va innovasion shakllarni amalga oshirish orqali taqdim etiladi. Madaniy-ma‘rifiy faoliyat shaklini tanlash aktuallashtirish usulini belgilab beradi.

Nomoddiy madaniy meros obyektlarini, an‘analarni uzatishning ijtimoiy mexanizmlari va meros usullarini birlashtiradi. Nomoddiy madaniy meros tabiiy ijtimoiy-madaniy muhitda, ya‘ni muzeyda namoyish qilish mumkin. Tabiiy ijtimoiy-madaniy muhitda nomoddiy meros obyektlarini saqlashning imkoni bo‘lmagan taqdirda, ularni muzeylashtirish alohida ahamiyatga ega. Jumladan, muzey shunchaki eksponatlar to‘plami emas, balki nomoddiy madaniy merosning doimiy ravishda ijro etiladigan, avloddan avlodga uzatiladigan va o‘rganiladigan jonli markazi bo‘lishi kerak.

Tashrifchilarni faqatgina tomoshabin emas, balki jarayon ishtirokchisiga aylantirish, ular tinglashi, ko‘rish, tegishi, his qilishi va hatto o‘rganishi mumkin bo‘lgan muhitni yaratish maqsadga muvoffiq bo‘ladi.

Nomoddiy madaniy meros egalari va jamiyat bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ular muzeyning asosiy “eksponatlari” va “gidlari” (hunarmandlar, ijrochilar, oqsoqollar)bo‘lishi kerak.

Har bir Nomoddiy madaniy meros elementini uning kelib chiqishi, ahamiyati, qo‘llanilishi va jamiyatdagi o‘rni bilan birga namoyish etish lozim.

Nomoddiy madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish mexanizmlarini

qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Muzeyning asosiy bo‘limlari va namoyish usullari.

Nomoddiy madaniy merosni quyidagi asosiy toifalarga bo‘lish mumkin va har biriga alohida yondashuv kerak:

Dostonlar, maqomlar, ertaklar, laparlar (og‘zaki an’analar va ifodalar):

Audiostansiyalar: Yuqori sifatli audio yozuvlar, ijrochilarning ovozini, ohanglarni eshitish imkoniyati.

Hikoyachilar maydoni: Mahsus sahnacha yoki burchakda jonli dostonchilik, ertakchilik, askiya namoyishlari.

Proyeksiya va vizualizatsiya: Doston yoki ertakning sahnalarini chizilgan tasvirlar, animatsiyalar orqali proyeksiya qilish.

Intervyular: nomoddiy madaniy meros egalari, oqsoqollar, so‘z ustalari bilan yozilgan videointryuvlar.

Milliy kuy-qo‘shiq, raqs, dorbozlik, masxarabozlik (ijrochilik san’ati):

Virtual Reallik (VR) va To‘ldirilgan Reallik (AR): Raqsni “o‘rganish” yoki dorbozlik tomoshasini “ichida” his qilish imkonini beruvchi VR/AR tajribalari.

Katta ekranli proyeksiyalar: Yuqori sifatli video yozuvlar, raqs va kuy namoyishlari.

Sahna maydoni: Muntazam ravishda jonli ijrolar, konsertlar, dorbozlik tomoshalari uchun mo‘ljallangan sahna.

Interaktiv o‘yinlar: Raqs harakatlarini takrorlash yoki musiqiy asboblarda chalishni o‘rganish bo‘yicha interaktiv o‘yinlar.

Navro‘z, to‘y marosimlari, sumalak tayyorlash, milliy o‘yinlar (Ijtimoiy odatlar, marosimlar, bayramlar):

Videodokumentallar: Marosimlarning to‘liq jarayonini ko‘rsatuvchi hujjatli filmlar.

Maketlar va dioramalar: Marosim yoki bayram sahnasining miniatyura maketlari (masalan, Navro‘z dasturxonini, to‘y sahnasi).

Sensor xonalar: Marosimlar bilan bog‘liq hidlarni (masalan, sumalakning hidi) yoki tovushlarni (masalan, karnay-surnay sadolari) yaratish.

Interfaol sensorlar: Tugmani bosish orqali an’anaviy o‘yinlarning qoidalarini yoki marosimning ma’nosini o‘rganish.

xalq tabobati, dehqonchilik usullari, astronomik bilimlar (tabiat va koinotga oid bilimlar va amaliyotlar):

Botanika bog‘i: Xalq tabobatida ishlatiladigan o‘simliklar bog‘i va ularning xususiyatlari haqida ma’lumotlar.

Interaktiv modellar: An’anaviy dehqonchilik asboblari yoki sug‘orish tizimlarining ishlaydigan modellarini namoyish qilish.

3D animatsiyalar: Qadimgi astronomik asboblarning ishlash prinsipi yoki osmon jismlariga oid xalq bilimlarini tushuntirish.

Kulolchilik, naqqoshlik, zardo‘zlik, kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi (an’anaviy hunarmandchilik):

Jonli ustaxonalar: Hunarmandlarning muzeyda o‘z hunarlarini jonli namoyish etishi, mahsulotlar yaratish jarayonini ko‘rsatishi.

“Qo‘l bilan his qilish” zonasi: Hunarmandchilik mahsulotlariga tegish,

ularning teksturasini his qilish imkoniyati.

Video-darsliklar: Hunarning asosiy bosqichlarini ko'rsatuvchi qisqa videoroliklar.

Xom-ashyo namoyishi: Hunarmandchilikda ishlatiladigan tabiiy materiallar (gil, yog'och, ip, bo'yoqlar) kolleksiyasi.

Mahsulotlar do'koni: Hunarmandlar tomonidan yaratilgan mahsulotlarni sotish imkoniyati, bu ularni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Umuman olganda, nomoddiy madaniy meros obyektlari xalqning maishiy turmushidan tortib, an'anaviy madaniyati va san'atini, uning yuzaga kelish tarixi va muhitini qamrab oladi.

Muzeylar nomoddiy madaniy merosni saqlash, tadqiq etish va namoyish qilishda muhim rol o'ynaydi va ular jamiyatning turli davrlar va xilma-xil madaniy meroslarini yaqindan o'rganish, ahamiyatini tushunish va kelajak avlodlarga yetkazish imkonini beradi. Muzeylashtirish jarayonida turli xil yangiliklar, ko'rgazmalar, ma'ruzalar va tadbirlar orqali nomoddiy madaniy merosning ahamiyati keng ommaga yetkaziladi. Muzeylarda nomoddiy madaniy merosni saqlashda ilmiy tadqiqotlar va muzey kolleksiyalarining boyishi, shuningdek, madaniy merosning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini targ'ib qilish muhimdir. Muzeylar, shubhasiz, jamiyatda madaniy muloqot va hamkorlikni rivojlantirish, madaniyatlar o'rtasidagi bag'rikenglikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

XULOSA

O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini saqlash va muzeylashtirish mavzusida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga asos bo'ldi:

1. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros obyektlari xalqning maishiy turmushidan tortib, an'anaviy madaniyati va san'ati, uning yuzaga kelish tarixi va XX asr oxiri – XXI asr boshlarida rivojlanish bosqichlarida shakllanishi davri urf-odatlar, ifoda shakllari, bilim va ko'nikmalar, shuningdek, tegishli vositalar, obyektlar, artefaktlar va jamoalar, guruhlar va ba'zi hollarda shaxslar tomonidan ularning madaniy qismi sifatida tan olingan.

2. Nomoddiy madaniy meros – jamiyatning urf-odatlari, marosimlari, bayramlari, mehmondo'stlik an'analari, axloq-odob bilan bog'liq urfodatlar, farzand tarbiyasi bilan bog'liq marosimlar, beshik to'yi, ism qo'yish marosimi, sunnat to'yi, mahalliy miqyosda o'tkaziladigan sayillar, hasharlar, tomoshalar, bayramlar, tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar yig'indisidir.

3. O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosning quyidagi: og'zaki an'analari va ifoda shakllari, jumladan, nomoddiy madaniy meros tashuvchisi sifatida til; ijrochilik san'ati, jumladan, aktyorlik, musiqa ijro etish, qo'shiq aytish, raqs va hokazo; urf-odatlar, marosimlar, bayramlar; tabiat va koinot bilan bog'liq bilim va urf-odatlar; an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar kabi ko'rinishlari saqlangan.

4. Nomoddiy madaniy merosning muzey amaliyotidagi roli tahlili asosida biz XX asrda muzey ishining rivojlanishi muzey faoliyati sohasiga ikkita muhim tarkibiy qism: muhit va jarayonni kiritish imkonini berganini ko'rsatdik. Aynan

muhit va jarayonlarni saqlashga e'tibor qaratilganda, muzeyda nomoddiy madaniy merosni saqlash va taqdimot qilish masalasini qo'yish mumkin bo'ldi. Ayni paytda nomoddiy madaniy merosni saqlash va taqdimotning teatrlashtirish, muzey bayramlarini o'tkazish, hunarmandchilik ishlab chiqarishini namoyish etish kabi ko'plab turli shakllari ishlab chiqildi. Xususan, reprezentasiyaning vaqtinchalik shakllarini tasniflash, haqiqatni modellashtirish funksiyasini o'rganishni chuqurlashtirish va shu asosda umuman muzey kommunikatsiyasi nazariyasini va xususan muzey ekspozitsiyasini aniqlashtirish batafsil ishlab chiqishni talab etadi.

5. O'rganilgan tadqiqotda o'tkazilgan tizimli tahlil shuni ko'rsatdiki, nomoddiy madaniy meros ikki xil, ammo bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan hodisalar uchun umumiy tushuncha hisoblanadi, ulardan birinchisi madaniyatni ifodalashning vaqtinchalik (prosessual) shakllari, ikkinchisi - madaniyatning nomoddiy tarkibiy qismi bo'lib, uni moddiy matnlarning dinamik «ma'nosi» deb ta'riflash mumkin. Nomoddiy madaniy meros tushunchasini zamonaviy muzeyshunoslikning terminologik tizimida tahlil qilib, nomoddiy madaniy meros doirasida mavjud bo'lgan dolzarb madaniyat hodisalarning qo'shimcha ma'naviy yuklamasi sifatida ta'riflanishi mumkin degan xulosaga kelindi. Qo'shimcha tahlilga ko'ra, meros obyektlarini saqlash va tavsiflash zarurligi refleksiya jarayonlari bilan bog'liq.

6. Nomoddiy madaniy merosni muzeylashtirish jadallashib, uni asrash va taqdimot qilish masalalarini chuqur ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bizning fikrimizcha, nomoddiy meros muammolari nazariy va amaliy muzei germevtikasi manfaatlari sohasiga faol kiritilishi, shubhasiz, nafaqat muzei ishi uslublarining o'zgarishiga olib keladi, ekspozitsiya va talqin amaliyotlarining rivojlanishiga ta'sir qiladi, balki ekomuzeylar, tirik muzeylar paydo bo'lishi bilan bo'lgani kabi, yangi turdagi muzeylar tashkil etishga ham olib keladi. Shubhasiz, kelajakdagi bunday muzeylarning ilmiy va madaniy-ma'rifiy faoliyatining ustuvor yo'nalishi moddiy meros bilan bir qatorda, jismoniy va metafizik ma'noda muzeining o'z chegaralari va ufqlarini kengaytirishga qodir bo'lgan nomoddiy merosni interfaol tushunish asoslab berilgan.

7. Meros obyektlarini saqlash va translatsiya qilish uchun sun'iy yaratilgan hududlardan biri sifatida muzeini o'rganish bevosita bizning ishimizdan kelib chiqadigan istiqbolli mavzulardan biri bo'lishi mumkin. Ushbu ish doirasida bildirilgan ayrim xususiy mulohazalar qo'shimcha tadqiqot va tafsilotlarni talab etadi.

8. Nomoddiy madaniy merosni saqlash, o'rganish, targ'ib qilish va muzeylashtirish hamda muzeylarda namoyish etish masalalari bugungi kundagi dolzarb va ustuvor vazifalardan biri bo'lib, mustaqillik yillaridan boshlab bu sohaga jiddiy e'tibor qaratilayotganligi yuzasidan salmoqli o'zgarishlar qilinganligi tahlilga tortilgan.

9. Nomoddiy madaniy merosni muzeylashtirish – bu juda noyob va murakkab vazifa, chunki u jismoniy obyektlar emas, balki amaliyotlar, bilimlar, ko'nikmalar, ifodalar, marosimlar, san'at turlari va jamiyatning o'ziga xos jihatlarini saqlash va namoyish etishni talab qiladi. An'anaviy muzeylar ko'pincha moddiy madaniy merosga e'tibor qaratadi, NMM muzei esa “jonli” va “interfaol” bo'lishi kerak.

10. Nomoddiy madaniy meros muzeyi – bu shunchaki jismoniy joy emas, balki madaniy qadriyatlarni tirik ushlab turish, ularni avloddan avlodga o‘tkazish va jamiyatning ushbu merosga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiluvchi dinamik markazdir. U o‘zbek xalqining boy va rang-barang nomoddiy madaniy merosini nafaqat saqlash, balki uni rivojlantirish va dunyoga tanitishda muhim rol o‘ynaydi. Bu muzey kelajak avlodlar uchun o‘tmishga nazar tashlash va undan o‘rganish imkonini beruvchi jonli darslik bo‘lishi kerak.

Tadqiqot natijalari quyidagi **taklif va tavsiyalarni** ishlab chiqish imkonini berdi:

O‘zbekiston nomoddiy madaniy meros namunalarini raqamlashtirish;

O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosini keng ommaga targ‘ib qilish maqsadida ijtimoiy roliklar, mediya kontentlar yaratish va ommaviy axborot vositalari orqali namoyish etishni takomillashtirish;

respublika hududida yashayotgan turli millat vakillariga xos bo‘lgan nomoddiy madaniy meros namunalarini o‘rganish, tegishli ro‘yxatlarga kiritish va muhofazasini tashkil etish;

nomoddiy madaniy merosni ilmiy o‘rganish bo‘yicha mahalliy va xorijiy etnofolklor ekspeditsiyalarini tashkil etish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.08/09.07.2020.San.118.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ГОСУДАРСТВЕННОМ МУЗЕЕ
ИСКУССТВ УЗБЕКИСТАНА**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ ХУДОЖЕСТВ И ДИЗАЙНА ИМЕНИ
КАМОЛИДИНА БЕХЗОДА**

ХАМИДОВА ДИЛФУЗА УЛУГБЕК КИЗИ

**ВОПРОСЫ СОХРАНЕНИЯ И МУЗЕЕФИКАЦИИ
НЕМАТЕРИАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ УЗБЕКИСТАНА**

17.00.06 – Музееведение. Консервация, реставрация и хранение историко-культурных объектов

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ ПО
ИСКУССТВОВЕДЕНИЮ (PhD)**

ТАШКЕНТ – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2022.1.PhD/San176.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Национальном институте художеств и дизайна имени Камолиддина Бехзода.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) и размещён на веб-странице Научного совета (<http://www.stateartmuseum.uz>) и на Информационном образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: **Давлатова Саодат Тиловбердиевна**
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Абдуллаев Машариб Сайдаматович**
доктор искусствоведения (DSc), старший научный сотрудник

Орифжонова Гулраъно Равшан кизи
доктор исторических наук (DSc)

Ведущая организация: **Государственный институт искусств и культуры Узбекистана**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 года в ___ часов на заседании Научного совета PhD.08/09.07.2020.San.118.01 при Государственном музее искусств Узбекистана по адресу: 100060, г. Ташкент, улица Амира Темура, площадь Памяти жертв репрессий. Зал заседаний Музея памяти жертв репрессий при Кабинете Министров. Тел.: (99855) 515-37-15; факс: (99855) 515-37-15; e-mail: tmi2007@mail.ru.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Государственного музея искусств Узбекистана (зарегистрирована за №___). (Адрес: 100060, г. Ташкент, улица Амира Темура, дом 16.). Тел.: (99871) 236-74-36; факс: (99871) 236-77-40.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года.
(реестр протокола № ___ от «___» _____ 2025 года).

Б.В.Хасанов
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней д.и.н., профессор

М.Б.Алижонов
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней д.ф.и.н. (PhD)

А.А.Мадраимов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.и.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время глобализация и процессы социальных изменений в мире создают благоприятную почву для налаживания диалога между сообществами, но в то же время порождают розни и представляют серьезную угрозу деградации, в частности, нехватка средств на сохранение нематериального культурного наследия приводит к риску его исчезновения и разрушения. Глубоко осознавая общие стремления, усилия и опасения человечества в области защиты нематериального культурного наследия, сообщества, особенно коренные народы, а в некоторых случаях и отдельные лица, играют важную роль в создании, охране, сохранении и восстановлении нематериального культурного наследия, тем самым обогащая культурное разнообразие и повышая творческий потенциал человечества.

На сегодняшний день в развитых странах мира, таких как Турция, Азербайджан, Китай, Катар и Корея проводятся масштабные исследования, направленные на восстановление утраченных уникальных образцов нематериального культурного наследия, а также связанных с ними инструментов, артефактов и культурных пространств. Наряду с этим осуществляется перевод материалов, хранящих образцы нематериального культурного наследия, и носителей информации в современные форматы, а также их аудиовизуализация. В этих странах особую актуальность приобретают вопросы изучения, сохранения, охраны и музеефикации объектов нематериального культурного наследия, а также внедрения инновационных идей, информационных технологий, информатики и вопросы взаимодействия.

В последние годы Узбекистан, благодаря развитию экономических, социальных и культурных связей на международной арене, уделяет большое внимание популяризации, продвижению и сохранению своего национального культурного наследия в мире. «Сохранение и изучение, передача из поколения в поколение исторического наследия является одним из главных приоритетов нашего государства»¹. В этом контексте возникает необходимость проведения научных исследований, направленных на обеспечение достойного места в системе современной цивилизации, а также на сохранение и передачу последующим поколениям нематериального культурного наследия, включая уникальные и (или) находящиеся под угрозой исчезновения его образцы.

Данная диссертация в определенной степени служит выполнению задач, изложенных в указах и постановлениях Президента Республики Узбекистан: от 13 августа 2019 года № УП-5781 «О мерах по дальнейшему развитию сферы туризма в Республике Узбекистан», от 26 мая 2020 года № УП-6000 «О мерах по дальнейшему повышению роли и влияния сферы культуры и искусства в жизни общества», от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии

¹ Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент.: Ўзбекистон, 2019. – Б. 29.

развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 25 декабря 2023 года № ПП-405 «О дополнительных мерах по развитию охраны, научного изучения и популяризации нематериального культурного наследия», а также в постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан: от 7 октября 2010 года № 222 «Об утверждении Государственной программы по охране, сохранению, популяризации и использованию объектов нематериального наследия на 2010–2020 годы», от 23 февраля 2011 года № 47 «Об утверждении нормативно-правовых документов по охране нематериального культурного наследия»², и других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Развитие информационного общества и демократического государства в социальной, правовой, экономической, культурной, духовно-просветительской сферах, формирование системы инновационных идей и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. По теме исследования были изучены опубликованные научные работы, статьи и брошюры, исследования, материалы периодической печати, учебные пособия и учебники, посвященные изучению объектов нематериального культурного наследия и музейному делу. В зависимости от проблемного аспекта, они были разделены на две группы:

1. Местная и зарубежная литература по изучению объектов нематериального культурного наследия (научная литература, статьи и брошюры, исследования, материалы периодической печати, учебные пособия и учебники);

2. Теоретико-методические исследования по музеефикации;

В литературе, относящейся к первой группе и посвящённой изучению объектов нематериального культурного наследия, встречаются сведения, раскрывающие те или иные аспекты исследуемой темы. Например, в рамках гранта практических исследований «ФА-А1-Г001» в Государственном музее истории Узбекистана были подготовлены материалы по музееведению, теоретическим основам музееведения, его практике, современным методам организации музейного дела, а также толковый словарь наиболее часто используемых терминов, относящихся к различным направлениям деятельности музеев. Всё это имеет важное значение для проводимого исследования³.

В Узбекистане исследования по различным направлениям нематериального культурного наследия проводились следующими учёными: по устным

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2009 йил 19 сентябрдаги “2010–2020 йилларда номоддий мерос объектларини муҳофаза қилиш, асраб-авайлаш, тарғиб қилиш ва улардан фойдаланиш Давлат дастурини тасдиқлаш тўғрисида”ги 222- сонли қарори / www.lex.uz.

³ Исмаилова Ж.Х.Музейшунослик атамаларининг изохли луғати. – Т.: Turon zamin, 2016. – 100 б.

традициям и формам самовыражения Т. Мирзаев, О. Сафаров, Д. Ураева⁴, И. Ёрматов, М. Жураев⁵, К. Кадыров, Б. Суванкулов, З. Усмонова, З. Холманова⁶; в области исполнительского искусства - Н. Касимов, Р. Носиров, Ш. Галиев, С. Оллаберганова, О. Иброхимов, К. Панжиев, М. Кадыров, У. Карабаев⁷, Б. Шодиев, И. Абдурахманов; по общественным обычаям, обрядам и праздникам - А. Аширов, Г. Соатов, О. Исмонова, М. Пирматова, М. Саттаров; в области знаний, связанных с природой и космосом - И. Джаббаров, К. Махмудов, М. Курбонов; в области знаний и навыков, связанных с традиционным ремесленничеством - А. Хакимов⁸, Э. Гюль, О. Хужаниезова, С. Алиева, К. Акилова, К. Жумаев, по значению в образовании и воспитании: Ж. Маматкосимов, К. Ташматова⁹.

Их статьи, учебные пособия и труды, опубликованные на узбекском и русском языках, частично раскрывают вопросы деятельности и истории нематериального культурного наследия. Этнографы и искусствоведы также проводили ряд исследований по объектам нематериального и материального культурного наследия, однако установлено, что источников и литературы, посвящённых именно их музефикации, практически нет.

В группе исследований, посвященных зарубежному опыту, отмечается актуальность научных исследований нематериального культурного наследия и его отдельных составных частей, а также то, что во многих странах¹⁰, в том числе и в России, вопросы его охраны подняты на уровень приоритета культурной политики¹¹. Вопросы изучения и сохранения материального и нематериального наследия, а также его музефикации рассматривал Н. Решетников¹². Французские ученые А. Девале, Б. Делос, Ж. Давалон, Ф.

⁴ Mirzayev T, Safarov O, O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. – Т.: Aloqachi nashiryoti, 2008. – В. 3-5.

⁵ Жўраев М. Наврўз байрами. Ўзбек фольклоршунослиги кутубхонаси. – Тошкент: Фан, 2009. – Б.12.

